

«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX
Vazirligi Davlat veterinariya
Bosh boshqarmasi tomonidan
3 avgust 2009 yilda.
O'zR QvaSXV DVBB qoshidagi ITK
24.07.2009 yildagi № 31-sonli bayonoma.

MASTISAN-E PREPARATINI (SUSPENZIYA) HAYVONLAR MASTITLARINI DAVOLASH UCHUN QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 «Mastisan-E» - majmuaviy preparat bo'lib, uning tarkibida o'simlik moyida suspenziyalangan eritromitsin, sulfadimezin, asalari mumi mavjud. Preparatning bir dozasi (5 ml) – tarkibida 112,5 mg eritromitsin va 0,4 g sulfadimezin mavjud.

1.2 «Mastisan-E» – gomogen, moyli, saqlash davomida qat-qat ajraluvchan suspenziyadir.

1.3 Preparat 100 va 200 ml lik shisha flakonlarda yoki 5 dan 20 ml gacha sig'imdagi tyubiklarda ishlab chiqariladi.

1.4 Preparat ehtiyotlik bilan (B ro'yxati bo'yicha) quruq, yorug'likdan pana joyda, bolalar yeta olmaydigan joyda, 0°C dan +20°C gacha bo'lgan haroratda saqlanadi.

Belgilangan saqlash sharoitlariga rioya qilingan holda saqlash muddati – 18 oy.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1 Preparat ko'pgina gram-musbat va gram-manfiy mikroorganizmlarga ta'sir ko'rsatadi, antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlarning shakllari rivojlanishini oldini oladi, yelin to'qimalarining regeneratsiyasiga yordam beradi.

3. QO'LLASH TARTIBI

3.1 Preparat yelin yallig'lanishlarining har xil shakllarini, yelin terisi va so'rg'ichlarning travmatik jarohatlarini davolash uchun qo'llanadi.

3.2 Preparatni kiritishdan avval kasallangan yelin choragidan sut sog'ib tashlanadi, emchak esa dezinfeksiyalanadi. Tyubik yoki flakonning ichidagi dori +36°C dan +39°C gacha isitiladi, bir jinsli muallaq eritma olinguncha yaxshilab chayqatiladi va kasallangan yelin choragiga so'rg'ich yo'li orqali preparatli tyubik ustiga burab o'rnatiladigan yoki shprits kanyulyasiga kiydiriladigan kateter yordamida kiritiladi. Preparat kiritilganidan keyin kasallangan yelin choragining emchagini pastdan tepaga ozgina uqalanadi.

3.3 Preparat kasallikning og'irligiga qarab, 5 dan 10 ml gacha miqdorda kiritiladi. Zarur bo'lganda preparatni kiritish sut emizuvchi sigirlarga har 12 soatdan keyin, sut bermaydigan sigirlarga - har 24 soatdan keyin qaytariladi.

Davolash kursi – 2-3 kun. Zarur bo'lganda davolash to'liq tuzalmaguncha qaytariladi.

3.4 Yelin terisi va so'rg'ichlarning shilliq pardalari travmatik jarohatlarini davolash preparatni jarohatlangan joyga surtish orqali amalga oshiriladi.

3.5 Nojo'ya ta'siri. Kamdan-kam hollarda allergik reaksiyalar kuzatiladi.

3.6 Preparatni qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar – preparatning tarkibiy moddalariga individual yuqori sezgirlik hisoblanadi.

3.7 Davolash paytida kasallangan yelin choraklaridan sut alohida idishga sog'ib olinadi, zararsizlantiriladi va yo'q qilinadi. Qolgan yelin choraklaridan sut qaynatilganidan keyin hayvonlarga beriladi.

«Mastisan-E» bilan davolangan yelin choraklaridan olingan sut, preparatning oxirgi kiritilishidan keyin 3 sutka o'tganda, mastitning klinik alomatlari to'liq yo'qolganligi sharti bilan (rangli reaksiya sinamasi va tindirish sinamasi bo'yicha sutning normal xususiyatlariga erishganda) kishilar uchun oziq-ovqat sifatida ishlatiladi.

Davolash davrida so'yilgan hayvonlarning go'shti, brakka chiqariladigan yelinidan tashqari, cheklovlarisiz oziq-ovqat maqsadida ishlatiladi.

4. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

4.1 Preparat mazkur Yo'riqnomaning talablariga mos kelmagan holda, uni qo'llash to'xtatiladi, bu haqda O'zbekiston Davlat veterinariya preparatlarining ilmiy-nazorat laboratoriyasiga quyidagi manzil bo'yicha bildiriladi: 700178, Toshkent shahri, A.Yunusov ko'chasi, 1a-uy. Tel./faks: 228-76-14, 229-30-47. E-mail: uzgnkl@rambler.ru. Ayni paytda laboratoriya manziliga laboratoriya bilan avvaldan kelishilgan miqdorda preparatning ochilmagan o'ramlari, va preparatning Yo'riqnoma talablariga mos kelmasligi xususiyatlarining batafsil ta'rifi yuboriladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pstdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Sotuv bo'limi: +998 (95) 509 0500
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TS 00483044-32:2013

biveco[®]
biveco.com